

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 321.7:39(075)

SIYOSIY MADANIYATNING MILLIY-MADANIY NEGIZLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ И ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ****NATIONAL-CULTURAL FOUNDATIONS AND CHARACTERISTICS OF POLITICAL CULTURE****Sulaymonov Qurbonali** 

Farg'ona davlat universiteti, Falsafa va milliy g'oya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Madaniy g'egemoniya va axloqning globallashuvi - milliy davlatchilik taraqqiyotiga xavflar tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье анализируются национально-культурные основы и особенности политической культуры. Также исследуются глобализация культурной гегемонии и нравственности – угрозы развитию национальной государственности.

Abstract

This article analyzes the national-cultural foundations and characteristics of political culture. Also, the globalization of cultural hegemony and morality - threats to the development of national statehood are studied.

Kalit so'zlar: siyosat, siyosiy madaniyat, siyosiy tahlil, faktor analiz, kontent analiz, sintez, siyosat falsafasi.

Ключевые слова: политика, политическая культура, политический анализ, факторный анализ, контент-анализ, синтез, политическая философия.

Key words: politics, political culture, political analysis, factor analysis, content analysis, synthesis, political philosophy.

KIRISH

Tarixiy taraqqiyot davomida siyosat va madaniyatning o'zaro ta'siri siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o'zaro ta'siri sifatida har bir mamlakatning aniq sharoitlariga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lgan. Shunday qilib, madaniyat va siyosatning o'zaro ta'siri madaniy xilma-xillik bilan shartlangan bo'lib, ushbu xilma-xillik nima uchun ba'zi sharoitlarga mos siyosiy tizimlar boshqa sharoitlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashini tushuntirish imkoniyatini beradi. Va bu jihatdan siyosiy va davlat institutlarining shakllanishiga va amal qilishiga, mamlakatdagi tub o'zgarishlarning sur'atlariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan siyosiy madaniyat ham umummilliy madaniyatning uzluksiz tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, siyosiy madaniyatni umummilliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida idrok etish, uni ijtimoiy-madaniy, milliy-tarixiy, diniy, milliy-psixologik an'analar, odatlar, stereotiplar, ko'rsatmalar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish oqibatidagina siyosiy madaniyatning shakllanishiga kuchli ta'sir qiluvchi madaniy omillarni ob'ektiv tadqiq qilish va to'g'ri tushunish mumkin.

Tarkibiy qism sifatida siyosiy madaniyat o'z ichiga ko'p asrlar davomida shakllangan siyosiy an'analarni, siyosiy amaliyotning mavjud me'yorlarini, turli ijtimoiy-siyosiy institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir haqidagi fikr va g'oyalarni oladi. Bu tarkibiy qismlar ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy omillar bilan shartlangan bo'lib, nisbiy barqarorlik, doimiylik bilan xarakterlanadi hamda ijtimoiy borliqdagi chuqur islohotlar jarayonida ham sekinlik bilan o'zgaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Xorij mamlakatlari huquqshunos olimlaridan E.Agranovskaya, R.Bayniyazov, N.Voplenko, O.Demko, Y.Dmitriyev, N.Keyzerov, A.Malko, N.Matuzov, V.Salnikov, A. Veyl, D. Iston, Dj. Dennis, S.Palonskiy, Dj. Piaje, Dj. Kevin, Dj.Torni-Purta, S.Stevenson, L.Matveyev, G.Matveyev va boshqalarning ilmiy ishlarida siyosiy sohada amaliy vazifalarni hal qilishda siyosiy texnologiyalardan foydalanishning ayrim jihatlari o'rganilgan.

Siyosiy sohada amaliy vazifalarni hal qilishda siyosiy texnologiyalardan foydalanish vazifalari huquqshunos olimlardan E.Abzalov, N.Vaxobov, D.Dehqonova, X.Zakirov, Z.Islomov, I.Kudryavsev, Z.Madaliyeva, X.Mamatov, O.Nasriddinova, X.Odilqoriyev, Y.Sadikova, A.Saidov, U.Tojixonov, N.Saydalixodjaeva, R.Turdiboyeva, A.Xamrayev, Sh.Yakubov hamda siyosatshunos olimlardan B.Jo'rayev, S.Jo'rayev, L.Tangriyev, Sh.Ermatov kabilarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Siyosiy madaniyat atamasining o'zi siyosat va madaniyat so'zlarining birikuvidan iborat bo'lib, ushbu sohalarning uyg'unligini o'zida ifoda etadi. Siyosat faoliyat sifatida muayyan madaniyatni (o'zaro munosabat me'yorlari, fe'l-atvor andozalari) shartlab qo'yadi. Har qanday jamiyatdagi siyosiy munosabatlar shu jamiyatning tub aholisini tashkil etuvchi millat madaniyatining ta'sirida shakllanadi. Demak, madaniyatlardagi xilma-xillik siyosiy madaniyatdagi xilma-xillikni keltirib chiqaradi. Shu bois, siyosiy madaniyatni keng umummilliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida o'rganish va siyosiy madaniyatning milliy modellari mavjudligini tan olish uning tabiatini to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Siyosiy madaniyat siyosiy psixologiya va etika bilan bir qatorda siyosatning insoniyligini o'lchashning muxim jihatlaridan biri hisoblanadi. Uni institutlardan tashqari tizim deb ta'riflash mumkin. Siyosiy madaniyat siyosiy an'analar, siyosiy qadriyatlar va amaliy siyosiy fe'l-atvor ko'rsatmalarini o'z ichiga qamrab oladi[3;16].

Siyosiy madaniyat - jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Uning taraqqiy etganlik darajasi shu tizimning sifatini o'zida ifoda etadi. Fuqarolar, jamoatchilik va siyosiy arboblarning siyosiy va huquqiy bilimdonligini, ularning siyosiy fe'l-atvorini aks ettiruvchi siyosiy madaniyat siyosiy institutlarning shakllanishi va amal qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tabiatini belgilab beradi[3;17]. Siyosiy madaniyatni faqat o'zgaruvchan, atrof dunyodagi o'zgarishlarga javob beruvchi hodisa sifatida o'rganish oqibatidagina, uni to'g'ri tahlil qilish mumkin.

Siyosiy madaniyatning o'ziga xosligi shundaki, u orqali inson o'z dunyoqarashini, g'oyaviy qarashlarini o'ziga xos hatti-harakatlarda ro'yobga chiqarishga harakat qiladi. Shunday qilib, siyosiy madaniyat siyosat sub'ekti uch tomonlama qobiliyatini o'zida aks ettirar ekan: birinchidan, hokimiyat munosabatlarida o'zi uchun muhim bo'lgan ichki ma'noni aniqlab olish; ikkinchidan, shu ma'nodan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarga belgilash; uchinchidan, maqsadlarga mos ravishda harakat qila bilish. Xullas, siyosiy madaniyat - insonning siyosiy hodisalar haqidagi qadriyatli qarashlari bilan shartlangan va amalda tatbiq etilgan hulq-atvor kodeksidir, ya'ni siyosat sub'ekti uchun faoliyat tarzidir. Bu ma'noda siyosiy madaniyat inson tomonidan siyosiy faoliyatning umum tomonidan qabul qilingan namunalari qay darajada o'zlashtirib olinganligidan dalolat beradi. Umuman, siyosiy madaniyatda inson tomonidan jamiyatda mavjud siyosiy tajriba, an'analarning o'zlashtirilishi darajasiga alohida e'tibor beriladi. Ularni o'zlashtirish esa o'z navbatida siyosiy hayotning vorisligini ta'minlaydi. Zero, inson madaniy qadriyatlarni o'zlashtiruvchi va vorislikni ta'minlovchi sub'ekt hisoblanadi. Siyosiy madaniyat, avvalambor, tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan jamoa va ijtimoiy guruhlarining tajribasidir[4;38]. Turli shakllarda mavjud bo'lgan mazkur tajriba insonlar siyosiy ongining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada ularning siyosiy ko'rsatma va qadriyatli yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi, ular esa, o'z navbatida, insonlarning siyosiy fe'l-atvorini belgilab beradi. Darhaqiqat, siyosiy madaniyat ko'p bo'lakli tabiatga ega bo'lib, uning tuzilishida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin: kognitiv qism, me'yoriy-baholovchi qism, hissiy-psixologik qism, ko'rsatmali fe'l-atvor qismi va umummadaniy yo'nalishlar.

Siyosiy madaniyatning kognitiv yoki axborot qismi jamiyat hayotining turli jihatlarida haqidagi jamiyat uchun xos, ularning ongida chuqur ildiz otgan tasavvurlarni, masalan, hokimiyat haqidagi, davlat haqidagi, siyosiy hayotda insonning o'rni haqidagi qarashlarni, siyosiy bilimlarni o'z ichiga oladi va bu jihatdan siyosiy madaniyat tuzilishidagi tarkibiy qismlardan biri - siyosiy ongni o'zida mujassam etadi. Xullas, bunda siyosiy ongning barcha shakldagi barqaror stereotiplari siyosiy madaniyatning kognitiv qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy madaniyatning me'yoriy-baholovchi qismi mazkur jamiyat uchun xos bo'lgan siyosiy qadriyatlar, me'yorlar, maqsadlar va ideallarni o'z ichiga oladi hamda o'ziga xos namuna, andoza bo'lib xizmat qiladiki, siyosiy sub'ekt shu andozaga ko'ra mavjud siyosiy munosabatlarga, siyosiy jarayonlarga baho beradi va ularning o'z siyosiy me'yorlariga, maqsadlariga mosligi yoki mos emasligi haqida xulosa chiqaradi.

SIYOSAT

Siyosiy madaniyatning hissiy-psixologik qismini siyosiy jarayonlarda ishtirok etayotganlarning hissiyotlari, kayfiyatlari tashkil etadi. His-tuyg'ular va psixologik kechinmalar siyosiy ong va fe'l-atvorning ajralmas jihatini tashkil etadi hamda siyosiy munosabatlarni idora etishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Siyosiy madaniyatning ko'rsatmali-fe'l-atvor qismini siyosiy ko'rsatmalar va ularga mos fe'l-atvor stereotiplari tashkil etadi. Bu qism tasavvur va qadriyatlarning amaliy hayotga tatbiq qilinishiga yordam beradi. Aytish mumkinki, siyosiy ko'rsatma - sub'ektning siyosiy hodisalarga munosabati, siyosiy fe'l-atvor esa - sodir bo'layotgan hodisalarga javoban sub'ekt ta'sirlanishining u yoki bu usuli[5;69]. Siyosiy ko'rsatma va siyosiy fe'l-atvor uzviy bog'liqlikda mavjud bo'ladi, ularning barqaror stereotiplari jamiyat, millat siyosiy madaniyatining zaruriy qismini tashkil etadi.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlaridan birini umummadaniy yo'nalishlar tashkil etadi, ular dunyoqarash, hokimiyat va boshqa siyosiy hodisalarga munosabatni o'zida ifoda etadi hamda shaxs, guruh, jamiyat qadriyatlari tizimida siyosiy hodisalarning o'rnini ochib beradi. Inson o'z siyosiy pozitsiyasini tanlashda qanday qadriyatlarni (individual yoki jamoaviy) ustun qo'yadi, qaysi sivilizatsiyalarning (G'arb yoki Sharq) me'yorlariga amal qiladi, qanday ongning (dunyoviy yoki diniy) kuchli ta'sirini sezadi, kabi savollarga javoblar inson dunyoqarashining mohiyatini ochib beradi va uning siyosiy madaniyatini u yoki bu darajada belgilab beradi.

Insoniyat taraqqiyoti zamonaviy bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - madaniy va siyosiy jarayonlarning uzviy bog'liqligidir. Chunonchi, jamiyatning ko'p sonli ijtimoiy tizimlari ichida siyosat alohida o'rin egallaydi. Siyosat olamini madaniyat bilan bog'liqlikda tahlil qilishning o'ziga xosligi siyosiy sohaning mohiyatini va siyosiy tuzilmalarning mazmunini yaxlit jamiyat nuqtai nazaridan yoritishda namoyon bo'ladi. Binobarin, fanda siyosat dunyosi nisbatan mustaqil, o'ziga xos madaniyatiga ega, insonning siyosiy maydondagi fe'l-atvorini yo'naltirib turuvchi qadriyatli-me'yoriy andozalariga ega ijtimoiy tuzilma sifatida o'rganilsa-da, siyosat madaniyatning uzluksiz bir qismi hisoblanadi, chunki siyosiy faoliyatda amal qiluvchi muayyan qadriyatlar va fe'l-atvor stereotiplari madaniyat bilan shartlangan bo'ladi[6;39]. Demak, siyosat o'zida mavjud kuchlar nisbati, siyosiy jarayonlarni ifoda etibgina qolmasdan, balki tarixiy jarayon davomida to'plangan va madaniyat doirasida avloddan-avlodga uzatiladigan tajribani, an'analarni, dunyo haqidagi tasavvurlarni, me'yorlarni ham o'zida aks ettiradi.

Siyosiy ongning borliqni aks ettirishi uning siyosiy jarayonning passiv elementi ekanligini bildirmaydi. Aksincha, u siyosatdagi aktiv asoslardan biri hisoblanadi. Siyosiy ong ijtimoiy amaliyotdan o'zib ketadi, hodisalarni bashorat qila oladi va shu bilan siyosiy faoliyatni rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy ong siyosiy munosabat sub'ektlarigagina tegishli bo'lishi mumkin. Ma'lumki, shaxslar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, jamiyat - siyosat sub'ektlari hisoblanadilar. Shunga muvofiq shaxslarning, ijtimoiy guruhlarining, millatlar va yaxlit jamiyatning siyosiy ongi haqida gapirish mumkin.

Siyosiy madaniyat - umummilliy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning siyosat bilan bevosita bog'liq sohasini o'z ichiga qamrab oladi. Siyosiy madaniyat siyosiy hayotning sifati va yo'nalganligida, insonlarning siyosiy faoliyatida, siyosiy institutlarning amal qilishida, ustuvor siyosiy qadriyatlar va fe'l-atvor namunalari o'z ifodasini topadi[10;49]. Siyosiy madaniyat jamiyatning siyosiy tajribasini, insonlarning siyosiy xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi ko'rsatmalar va ko'nikmalarni, taassurotlar va mayllarni o'z ichiga oladi.

Hokimiyatning tabiati, uning shakllari, harakat usullari va oddiy fuqarolar bilan munosabatlari ko'p jihatdan jamiyatning madaniyati darajasiga, unda qaror topgan siyosiy madaniyatga bog'liq bo'ladi. Siyosiy boshqaruv tamoyillari qanchalik demokratik bo'lsa, siyosiy hokimiyatni nazorat qilish usullari qanchalik samarali bo'lsa, siyosiy madaniyat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunda siyosiy madaniyat siyosiy erkinliklarni ifoda etish va amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunga kelib biror mamlakatni bosib olish, biror hududni zabt etish, biror xalqni bo'ysundirish vositalari tubdan o'zgardi[7;31]. Ilgari bu maqsadlarga erishish uchun qanchadan-qancha qurol-aslahalar, qimmatbaho texnika, minglab askarlar va ancha-muncha vaqt kerak bo'lar edi. Eng muhimi, kim kimni zabt etmoqchi ekani, qaysi mamlakat qaysi xalqni bosib olayotgani kundek ravshan edi. hozirgi kunda esa biror mamlakat yoki xalqni bo'ysundirish uchun ommaviy axborot vositalarining o'zi kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo'ravonlik axborot orqali ta'sir qilish, odamlarni biror g'oyaga ishontrish, ongni boshqarish texnologiyalariga o'rin bo'shatyapti.

XULOSA

Bugungi voqelik har qanday davlat oldida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasining dunyo miqyosida qizg'in muhokama qilinayotgani ham bejiz emas. Bunday muhokamalarda axborotning insoniyat taraqqiyotidagi ijobiy rolini ta'kidlash bilan bir qatorda, undan xalqaro barqarorlik va xavfsizlikka ziyon etkazish maqsadida foydalanish holatlari keskin qoralanmoqda. SHuningdek, axborot texnologiyalaridan jinoyatkorona va terroristik maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida bong urilmoqda. O'z taraqqiyotining murakkab, o'tish bosqichini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun bu muammo alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki mamlakat manfaatlariga zid axborot xurujlari bu mamlakatlar uchun ayniqsa xavfli va halokatli tus oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weber M. The theory of social and economic organization. – N. Y., 1947. – P.154.
2. Мангейм Ж.Б., Рич Р.К. Политология. Методы исследования. - М.: Прогресс. 1997. –С. 127.
3. Эргашев И. Сиёсат фалсафаси. Тошкент, Akademiya, 2004 йил, – 131 б.
4. Жумаев Р. Давлат ва жамият: Демократлаштириш йўлида. – Т.: Шарқ, 1998. – 144 б.
5. Блинов Н., Ожегов Ю., Шереги Ф. Политическая культура и молодёжь. – М., 1982. – 175 с.
6. Умарова Н.Т. Жамият сиёсий маданиятининг шаклланишида этник феъл-атвор стереотипларининг ўрни (Ўзбек миллати мисолида) Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 1998. – 131 б.
7. Сабуров Н. Шахс сиёсий-ҳуқуқий фаоллиги – фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг муҳим омили / Монография. – Т.: ТДҶОИ, 2009. – 131 б.
8. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
9. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. – Т.: Академия, 2000. – 46 б.
10. Қодиров А. Сиёсат фалсафаси. Монография. – Т.: ТДҶОИ. 2005. –124 б.